

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YUSUPOV JASURBEK MELSOVICH

**PLAGIATGA QARSHI KURASHNING FUQAROLIK-HUQUQIY
SHAKLLARI VA VOSITALARI**

12.00.03 - Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Yusupov Jasurbek Melsovich

Plagiatga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy shakllari va vositalari.....3

Юсупов Жасурбек Мэлсович

Гражданско-правовые формы и средства борьбы против плагиата.....23

Yusupov Jasurbek Melsovich

Civil law forms and means of combating plagiarism.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YUSUPOV JASURBEK MELSOVICH

**PLAGIATGA QARSHI KURASHNING FUQAROLIK-HUQUQIY
SHAKLLARI VA VOSITALARI**

12.00.03 - Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PHD/Yu541 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasriev Ilhom Ismoilovich

yuridik fanlar doktori, professor

Gulyamov Said Saidahrorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 16 dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1199-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13.

Tel.: 99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 30 noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 30 noyabr kuni 38-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R.Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

D.Y.Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

B.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar soni tobora ortib bormoqda. Scopus ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2000-yildan 2022-yilgacha "plagiat" so'zini eslatib o'tgan nashrlar soni sakkiz marta ko'payib, jiddiy o'sishni ko'rsatmoqda. Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Singapur, Kanada kabi rivojlangan davlatlardagi nufuzli universitetlar talabalari qariyb 15 foizi o'zlarining tadqiqot ishlarida manbaga qasddan havola qilmasdan plagiat yoki boshqalarning so'zlaridan foydalanganliklarini tan olishgan. Ushbu talabalardan faqatgina 3 foizi plagiat uchun jazolanganligi achinarli hol, albatta. Akademik etika (akademik halollik) nuqtai nazaridan plagiat akademik firibgarlik hisoblansa, qonun nuqtai nazaridan asarga nisbatan mualliflik huquqini buzish sifatida baholanadi. Shu bois mualliflik huquqiga oid qonun buzilishlarining sabablarini tadqiq etish, plagiatga qarshi turli shakl va vositalar yordamida kurashish zarurati mavjud.

Dunyoda plagiatga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy shakllari va vositalariga alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan, mualliflik huquqini buzganlik uchun jazo choralari ishlab chiqish va qo'llash, ruxsat etilgan maksimal plagiatning hajmini va chegaralarini belgilash, plagiatni aniqlash uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning muallifligini aniqlash, ta'lim muassasalarida plagiatga qarshi kurashishga qaratilgan yagona ichki siyosatni shakllantirish va uning tartibini ishlab chiqish masalalariga ustuvor tadqiqot yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda eng yangi texnologiyalarni qo'llash orqali mualliflik huquqi obyektlarining noqonuniy aylanishiga qarshi faol kurashishga imkon beruvchi qonunchilikni shakllantirish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2021-yilda plagiat bo'yicha 26 ta holat qayd etilgan bo'lib, shundan 7 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 19 nafariga nisbatan taqdimnomalar kiritilgan. 2022-yilda plagiat bo'yicha 29 ta holat qayd etilgan bo'lib, shundan 17 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 12 nafariga nisbatan taqdimnomalar kiritilgan. 2023-yilning birinchi yarmida 32 ta plagiat holati qayd etilgan bo'lib, shundan 21 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 11 nafariga nisbatan taqdimnomalar kiritilgan. Plagiat fenomeni yashirin bo'lib qolmoqda, chunki dunyoda yagona axborot maydoni mavjud bo'lsa va harakatlar axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilsa, nima ilgari surilayotganini aniqlash har doim ham mumkin emas. Plagiatga qarshi profilaktika choralari to'g'ri ko'rilsa va huquqbuzarlarga nisbatan, jumladan ta'lim sohasida ham javobgarlik muqarrarligi belgilansa, bu fan rivojiga, mualliflarning halolliligiga xizmat qiladi, ta'lim sifati yaxshilanadi, xorijiy ilm-fanni o'zlashtirish jarayoni sekinlashadi, o'zbek ilm-faniga ishonch paydo bo'ladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Prezidentning 2021-yil 28-yanvardagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-son, 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-221-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qarorida va bu boradagi boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnikasini rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini va ularni amalga oshirish yo‘llarini shakllantirish”ga muvofiq ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar mualliflik huquqini himoya qilish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga oid ayrim masalalar I. Rustambekov, X.R. Raxmonqulov, S.S. Gulyamov, I.B. Zokirov, Sh.Sh. Shoraxmetov, O. Oqyulov, D.M. Karaxodjayeva, N.F. Imomov, Sh.N.Ro‘zinazarov, Q.Mexmonov, J.Yuldashev, S.Musayevlar tomonidan alohida ilmiy maqolalar, tezislar, monografiya qismlari ko‘rinishida o‘rganilgan va ular intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining turli jihatlariga to‘xtalib o‘tishgan, shuningdek mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik, xalqaro mualliflik huquqi va patent huquqi masalalari bilan bir qatorda plagiat qarshi kurash haqida ham qisman so‘z yuritishgan.

Plagiat muammosi MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. D.A. Alekseev, V.N. Danilov, Yu.V. Chexovich, A.A. Ivaxnenko, L.F. Netishinskaya kabi olimlar plagiat muammolarini akademik etika kontekstida o‘rganishgan. V.I. Serebrovskiy, V.I. Koretskiy, B.S. Antimonov, Ye.A. Fleyshits, O.S. Ioffe, V.Ya. Ionas, M.V. Gordo¹ va boshqa fuqarolik huquqi sohasidagi mutaxassislar sovet mualliflik huquqi institutining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan nazariy bazani yaratishga ulkan hissa qo‘shdilar.

Shuningdek, xorijiy olimlar, jumladan I. Meyer, William E. Cain, Martin Luther King's, R.D. Mawdsley, Nidhi Kumari, Thomas Dreier, Gernot Schulze, Ann Lathrop, Kathleen Foss mualliflik huquqini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda yaqindan ishtirok etib, plagiat muammolariga to‘xtalib o‘tishgan. Zamonaviy olimlar mualliflik huquqi institutini ham o‘rganib, tadqiq qilishmoqda, xususan Chandrima Bora, Armen Y.G., Bekaidar N., Bakhytzhan S., Vladimir I.T., Elena I.K., George D.K., Freckelton I., Halsted G.B., Masic I., Schreiber M., B.Taylor, E.Hothersall, L.Perez-Martin, H.R.Garner, K. Bazdaric, L. Bilic-Zulle, G. Brumini, M. Petroveck² kabilar shular jumlasidandir. Yuqoridagi mualliflar ko‘pincha mualliflik huquqini huquqiy tartibga solish masalalariga to‘xtalib, plagiatga qarshi kurashish bo‘yicha takliflarni ilgari surishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga

¹ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

² Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

kiritilgan va “Intellectual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari” ilmiy tadqiqoti doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi plagiatga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy shakllarini va vositalarini takomillashtirishga, intellektual mulk natijalarini himoya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

plagiatning huquqbuzarlik munosabatlarining bir turi sifatida ta’rifini ishlab chiqish;

plagiatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchlik hujjatlarini tartibga soluvchi normalarning tarixiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sohasida plagiatning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish;

nusxa ko‘chirishning huquqiy mohiyatini aniqlash, shuningdek nusxa ko‘chirish va iqtiboslarni suiiste’mol qilish sabablarini aniqlash;

plagiatga qarshi kurashning shartnomaviy-huquqiy va delikt-huquqiy shakllarini tahlil qilish;

plagiatga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ma’muriy shakllari o‘rtasidagi qiyosiy tahlilni amalga oshirish;

plagiatga qarshi kurashish sohasida xorijiy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish;

plagiatning turli ko‘rinishlariga qarshi samarali kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

huquqni qo‘llash amaliyotining muammoli masalalarni hal qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti intellektual faoliyat natijalarini turli xil shakl va vositalar orqali plagiatdan himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti O‘zbekiston Respublikasi va ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti, huquq fanida mavjud bo‘lgan kontseptual yondashuvlar, plagiatga qarshi kurashishning ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy jarayonlarni bilishning umumiy ilmiy dialektik usuli tashkil etadi. Shuningdek, rasmiy-mantiqiy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi, hammualliflikda yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko‘rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi, muallifning vafotidan keyin birinchi marta e’lon qilingan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi asar e’lon qilinganidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi asoslab berilgan;

zararlar yetkazilishi faktidan qat’i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma

baravaridan ming baravarigacha miqdordagi tovon to'lanishi lozimligi asoslab berilgan;

mualliflik shartnomasi muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risida muallif yoki uning vorisi tomonidan tuziladigan shartnoma ekanligi asoslab berilgan;

eshittiruvchi amalga oshiradigan faoliyati turiga ko'ra o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlari, mualliflik shartnomalari, shuningdek tegishli qoidalar asosida amalga oshirishga majburligi asoslab berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

plagiat uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash va kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan;

huquq egasiga nisbatan plagiat qilingan taqdirda fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish maqsadida zarar miqdorini aniqlashning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

oliy ta'lim muassasalarida plagiat va iqtibos o'rtasidagi aniq chegaralarni belgilaydigan, shuningdek ilmiy maqolalarda boshqa ilmiy ishlarda iqtibosning ruxsat etilgan maksimal hajmini belgilaydigan iqtiboslar bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilishi lozimligi asoslab berilgan;

plagiat tushunchasini belgilaydigan va intellektual mulkka oid huquqlarning buzilishi bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish tartibini o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori ishlab chiqilishi zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tegishli metodologiyadan foydalanish, rivojlangan huquqiy tizimlar institutlari va tajribasini qiyosiy tahlil qilish, milliy va xorijiy sud amaliyotini o'rganish, milliy va xorijiy qonunchilikni tahlil qilish, tadqiqot natijalarining qonunchilikka kiritilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar tegishli sohada, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida ilmiy tahlillar o'tkazishda, fuqarolik huquqida plagiatga qarshi kurashish shakllari va vositalarini belgilash bo'yicha munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini tushuntirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shunadaki, ulardan norma ijodkorligi faoliyatida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli sohada nizolarni tartibga solishda, shuningdek oliy yuridik ta'lim muassasalarida mualliflik huquqi sohasidagi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin..

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mualliflik huquqi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi, hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi, muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar e'lon qilinganidan keyin yetmish yil davomida

amal qilishi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-avgustdagi “Intellectual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–709-son Qonuni bilan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasi birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlariga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarni ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2023-yil 15-fevraldagi 10-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi mualliflarning asarlarini uzoqroq muddat himoya qilishni ta’minlash imkonini bergan;

zararlar yetkazilishi faktidan qat’i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdordagi tovon to‘lanishi lozimligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-avgustdagi “Intellectual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–709-son Qonuni bilan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 65-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarni ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2023-yil 15-fevraldagi 10-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqbuzarlik xususiyati va huquqbuzarning aybdorlik darajasidan kelib chiqqan holda tovon to‘lash shaklidagi to‘lov miqdorini belgilash imkonini bergan;

mualliflik shartnomasi muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risida muallif yoki uning vorisi tomonidan tuziladigan shartnoma ekanligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarining 3-bandini shakllantirishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 8-maydagi 34-8/3042-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi mualliflik shartnomasining tushunchasini qonunchilikda aniqlashtirishga imkon bergan;

eshittiruvchi amalga oshiradigan faoliyati turiga ko‘ra o‘z faoliyatini qonunchilik hujjatlari, mualliflik shartnomalari, shuningdek tegishli qoidalar asosida amalga oshirishga majburligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarining 304 va 319-bandini shakllantirishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 8-maydagi 34-8/3042-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi teleradiokompaniya tomonidan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladigan faoliyatga nisbatan chegara qo‘yish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta ilmiy maqola (1 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning *birinchi bobi "Plagiat huquqiy kategoriya sifatida va uning namoyon bo'lish shakllari"* deb nomlanib, unda plagiatning huquqbuzarlik sifatidagi umumiy tavsifi, plagiatga qarshi kurashish bo'yicha fuqarolik qonunchiligining genezisi, mualliflik huquqi sohasidagi plagiat shakllari, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sohasida plagiatning namoyon bo'lish xususiyatlari, nusxa ko'chirish va iqtibos keltirishni suiiste'mol qilish masalalari tahlil qilinadi.

Dissertant plagiatning oqibatlari, javobgarligining huquqiy va axloqiy jihatlari bor, degan xulosaga keladi. O'zbekistonda plagiatga qarshi faqat axloq qoidalari asosida choralar ko'riladi. Qo'shma Shtatlar va dunyoning boshqa ba'zi rivojlangan mamlakatlari qonunchiligida ko'zda tutilgan plagiatga qarshi kurash bo'yicha qat'iy choralar ushbu sohadagi sanksiyalarning samaradorligini isbotlaydi. Plagiatga qarshi samarali kurash olib borish uchun milliy qonunchiligimizda mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqishlari lozim.

Doktrinal (O.V. Bogdanova, V.P. Mozolin, N.I. Dobryakov, Djon Evans) va qonunchilik ta'riflari (MDH davlatlari va Buyuk Britaniya tajribasi) asosida plagiat tushunchasiga ta'rif berish taklif etiladi. Plagiat – shaxsiy nomulkiy huquqlarning mustaqil buzilishi bo'lib, u butun intellektual ish natijalariga va ularning alohida elementlariga nisbatan mualliflik huquqini qo'lga kiritishda, shuningdek fan, adabiyot, san'at asarlaridan, ularning alohida qismlaridan qaysi manbadan olinganligini ko'rsatmasdan qo'llashda namoyon bo'ladi.

Milliy qonunchilik, rivojlangan davlatlar va MDH davlatlari tajribasi tahlili asosida tadqiqotchi plagiat ham qasddan, ham ehtiyotsizlik sababli bo'lishi

mumkinligini ta'kidlaydi. O'z-o'ziga plagiatning yuqori darajasi shuni anglatadiki, ilgari nashr etilgan ilmiy ishlarning aksariyati o'z-o'ziga plagiat qilingan va bu mualliflik huquqining ehtiyotsizlik sababli buzilishiga olib kelishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar mualliflik huquqini buzgan shaxsning maqsadiga e'tibor berishadi, chunki bu plagiatga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalarga ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasida qonunchlik hujjatlariga plagiatning oqibatlarini bartaraf etish normalarini kiritish, shuningdek qaysi holatda o'z-o'ziga plagiat qonun buzilishi hisoblanishi, qaysi holatda esa bunday hisoblanmasligini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Dissertant plagiatning turli texnologiyalari mavjudligini ta'kidlaydi: sof plagiat, yangilangan plagiat, tahrirlangan plagiat, kodlangan plagiat, mazmunli plagiat. Ishtirok etish shakli va ko'lamiga ko'ra plagiatning quyidagi turlari ajratiladi: professional, o'quv va ilmiy, normativ. Shuningdek plagiatning keng tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi: original plagiat, ma'lumotlarni tayyorlash va soxtalashtirish, izohlash, noto'g'ri mualliflik, mozaik plagiat, g'oyalar plagiat, tarjima orqali plagiat.

Plagiatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilinib, ilmiy jamoatchilik yordamida nashriyotlarga alohida e'tibor qaratgan holda, plagiatni aniq va izchil aniqlash, uning oldini olish, ushbu qoidalarni buzgan shaxslarga nisbatan aniq jazo choralarini qo'llash orqali oldini olish mumkin, degan xulosaga kelindi. Ilmiy asar g'oyasi O'zbekiston qonunchiligida himoyalanganligi sababli intellektual faoliyatning asl va takroriy obyektida matnning mutlaq yoki to'liq bo'lmagan o'xshashligi hodisasi mavjud bo'lgandagina yuridik javobgarlik yuzaga kelishi mumkin va tegishli qonunlarga tegishli qoidalarni kiritish zarur.

Yangi ilmiy maqolalar yaratish bilan bog'liq muammolardan kelib chiqib, ular hali ham takrorlash, iqtibos keltirish kabi usullar bilan amalga oshirilayotganligi o'rganildi. Takrorlash – diniy, ta'lim va o'qitish maqsadlarida foydalaniladigan kitoblar manfaati uchun mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan ruxsat etilgan foydalanish. Iqtibos keltirish – matnning alohida qismlarini so'zma-so'z nusxalash va ularni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nutq, havolalar va izohlar sifatida to'g'ri keltirish, shuningdek haqiqiy muallif va uning asarlarining bibliografiya katalogidagi ajralmas aksidir. Takrorlash va iqtibos keltirish o'rtasidagi farq boshqa bironing ishini qo'llash nuqtai nazaridan paydo bo'ladi.

Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, mualliflikni iqtibos keltirish orqali tan olish boshqalarning asarlaridan foydalanishning va plagiatga yo'l qo'yimaslikning yagona to'g'ri yo'lidir. Biroq boshqalarning maqolalaridan foydalanish hatto ularga to'g'ri keltirilgan bo'lsa ham, mualliflik huquqi bilan cheklanishi kerak. Ba'zi muharrirlar ikkita ilmiy maqola o'rtasidagi o'xshashlik foizini ko'rib chiqishda empirik qoidaga murojaat qiladilar, materialning 1/3 qismidan ko'prog'ini o'z ichiga olgan o'xshashlik miqdori ortiqcha hisoblanadi. Iqtibosga oid qoidalarni ishlab chiqish, shuningdek boshqa mualliflarning asarlari yoki so'zlaridan iqtibos keltirilishi bo'yicha ruxsat etilgan miqdorni aniq belgilash zarur.

Garvard universitetida plagiatni oldini olish va javobgarlikka tortish bo'yicha muayyan qat'iy choralar ko'rilmogda. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda iqtibos keltirish tartibiga oid normalar solishtiriladi (Vankuver usuli yoki Garvard usuli).

Vankuver iqtibos usuli yoki muallifning raqamlar tizimi – bu bibliografiyadagi raqamlardan yozuvlarga ishora qiluvchi matndagi raqamlardan foydalanadigan iqtibos usulidir. Ilmiy hamjamiyatda Harvard Referencing Style deb ataladigan Harvard iqtibos usuli jamoat va gumanitar fanlarda ilmiy maqolalar dizaynidagi jiddiy o‘zgarishdir. O‘zbekistonda iqtibos keltirish tartibiga oid bunday normalar mavjud emas va ularni tezroq ishlab chiqish kerak.

Dissertatsiyaning *“Plagiatga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy shakl va vositalarini qo‘llash va takomillashtirish”* nomli ikkinchi bobida plagiatga qarshi kurashning shartnomaviy-huquqiy va delikt-huquqiy shakllari masalalari tahlil qilingan, fuqarolik-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ma‘muriy shakllar o‘rtasida qiyosiy tahlil amalga oshirilgan, plagiatga qarshi fuqarolik-huquqiy vositalarni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilgan, ChatGPT natijalarini huquqiy baholash muammolari o‘rganilgan.

Tadqiqotchi tomonidan qonunchilikka, universitetlarning ichki hujjatlariga, shuningdek kadrlar tayyorlash bo‘yicha shartnomalarga plagiat masalasini majburiy kiritishga qoidalar yo‘qligi qayd etilgan. Bunday qoidani yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlarda aniq belgilab qo‘yish talab etiladi. Talabalar plagiatning salbiy oqibatlari to‘g‘risida bilimga ega emasligi sababli turli nizolarning oldini olishga yordam berish maqsadida shartnomada plagiatning oqibatlari to‘g‘risidagi qoidalar belgilanishi kerak, shuningdek shartnomada plagiat deganda aniq nima nazarda tutilishi va uni aniqlash metodologiyasi ko‘rsatilishi kerak.

Tadqiqotchi turli davlatlarning mualliflik huquqi doktrinasi va huquqni qo‘llash amaliyotida qo‘llaniladigan “parallel ijod” va “takroriy asarlar” atamalari milliy qonunchilikda mustahkamlanmagan va ularning mazmuni ochib berilmaganligini ta’kidlaydi. Shuning uchun qonunchilik hujjatlarida ushbu tushunchalar mazmunini belgilab qo‘yish zarur.

Tadqiqotchi Fransiya, Angliya, Germaniya va AQSh qonunchiligini o‘rganib, mualliflik huquqini buzganlik uchun jazo sifatida faqat moliyaviy sanksiyalar (jarimalar) nazarda tutilganligini ta’kidlaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, chet el qonunchiligining yondashuvi to‘g‘ri va afzalroqdir, chunki jarima huquqbuzarlikning asosiy motiviga boshqalarga qaraganda ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunga oid normalarni qonunchiligimizga kiritish taklif etiladi.

Fuqarolik huquqidagi umumiy qoidalarga ko‘ra, plagiatga qarshi kurashning huquqiy, profilaktik va texnik vositalari ajratiladi. Plagiatga qarshi kurashning yuqoridagi vositalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Plagiatga qarshi kurashning huquqiy vositalari aniq isbotlangan plagiat fakti uchun paydo bo‘ladi.

Dissertatsiyada milliy huquqiy tizimida (barcha darajalarda: doktrinada, huquqiy tartibga solish va huquqni qo‘llashda) turli xil turdagi ishlar uchun ijodkorlik darajasini baholash uchun teng bo‘lmagan mezonlardan foydalanish amaliyotining yo‘qligi ta’kidlanadi. Mualliflik huquqini himoya qilishga da’vogar asarda boshqalarning asarlaridan nusxa ko‘chirish faktining mavjudligi yoki yo‘qligi mezoni AQSh huquq tizimida muallif tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan deyarli har qanday intellektual faoliyat natijasini himoya qilinadigan deb tan olish uchun asos bo‘ladi. Shu sababli yaratilgan asarlarni mualliflik huquqi bilan himoya

qilinadigan deb topish qoidalarini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish va ularni qabul qilish lozim.

Tadqiqotchi plagiatga qarshi kurashishning texnik vositalarini o'rganib, shunday xulosaga keladiki, turnitin dasturi qisqa vaqt ichida ishlarni tekshirishga imkon berishiga va juda qulay bo'lishiga qaramasdan, lekin u ko'plab yopiq turdagi internet saytlariga ruxsat bermasligini va bu holatdan intellektual faoliyat natijalarini himoya qilishni istagan shaxslar foydalanishi mumkinligini ta'kidlaydi. 2021-yil dekabr oyidan boshlab Oliy attestatsiya komissiyasida dissertatsiyalarda plagiatni aniqlash bo'yicha Antiplagiat dasturi joriy etilgan. Dastur plagiatni aniqlashdagi ko'p funksiyali ekanligi, shuningdek an'anaviy dasturlar kirish imkoni bo'lmagan ko'plab ilmiy maqolalar bazalariga kirish imkoniyati bilan o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatdi. Agar asar matni boshqa tildan tarjima qilingan va o'zlashtirilgan bo'lsa, dastur ham bu fakti ochib beradi va nusxa ko'chirish manbasini aniq ko'rsatadi.

Tadqiqotchi O'zbekistonning me'yoriy-huquqiy hujjatlarini, E.P. Gavrilov, D.A. Motovilov asarlarini o'rganib, sun'iy intellekt akademik doiralarda plagiatning oldini olish usulidir, degan xulosaga keladi. Biroq sun'iy intellekt tomonidan yaratgan asarlarning egasi kim ekanligi haligacha noma'lum. Ijodkorlik – bu shaxsning noyob, haqiqiy yutug'i bilan yakunlanadigan faoliyatdir. Shu munosabat bilan qonunchilik hujjatlarini sun'iy intellekt ixtirolariga egalik huquqiga oid normalar bilan to'ldirish taklif etiladi.

Dissertatsiya muallifining ta'kidlashicha, AQSh va Buyuk Britaniyada arzimagan ijodkorlik darajasiga ega bo'lgan asarlarning himoya qobiliyatini tan olish yo'li o'ziga xos xususiyatlarga ega. Angliya-Amerika "copyright" tizimi mualliflik huquqi qonun chiqaruvchining tegishli aktiga asoslanganligi sababli mavjud degan fikrga asoslanadi. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchiligimizda asar shaklining o'ziga xosligi yoki yangiligi to'g'risida yozilmagan, faqat uni boshqa asardan ko'chirmaslik haqida ta'kidlangan. Asar muallif tomonidan mustaqil ravishda yaratilishi va uning sa'y-harakatlari, mahorati va tajribasining natijasi bo'lishi kerak.

Xorijiy tajriba asosida dissertant ChatGPTning afzalliklari va kamchiliklarini, bundan tashqari siyosat, ta'lim, huquq, tibbiyot, san'at kabi sohalarda undan foydalanish tartibini o'rgandi. Ammo O'zbekistonda ChatGPT yordamida yaratilgan asarga kim va qay darajada huquqqa egaligi masalasi haligacha hal etilmagan, shuningdek ta'lim muassasalarida undan foydalanish tartibi belgilanmagan. Yevropa va AQShning bir qator olimlari oliy o'quv yurtlarida davlat imtihonlarini tekshirish tizimiga ham ChatGPTga asoslangan neyron tarmoqlarini kiritishni taklif qilishmoqda, chunki chatbotlardan foydalanish imtihon topshiriqlarini tekshirishda inson omili bilan bog'liq xatolarni bartaraf etishi mumkin. Shu munosabat bilan Toshkent davlat yuridik universitetida generativ sun'iy intellekt (ChatGPT)dan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish taklif etiladi va unda quyidagilar nazarda tutilishi kerak: talabalar va xodimlarni sun'iy intellektni o'zlashtirishda qo'llab-quvvatlash; generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda talabalarga yordam berish uchun xodimlarni jihozlash; generativ sun'iy intellektidan axloq qoidalari asosida o'qitish va baholashni moslashtirish va

teng huquqli foydalanishni ta'minlash; akademik qat'iylik va yaxlitlikni ta'minlash; ilg'or tajribalarni almashish uchun birgalikda ishlash. Shuningdek talabalar va professor-o'qituvchilarning ishlarida ChatGPT ma'lumotlaridan foydalanish foizini ishlab chiqish taklif etiladi.

Dissertatsiyaning *“Plagiatda mualliflarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini himoya qilish”* nomli uchinchi bobida shaxsiy nomulkiy huquqlarni tiklash va ma'naviy zararni qoplash xususiyatlari, plagiat natijasida yetkazilgan zararni undirish, plagiat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan javobgarligi choralari o'rganiladi.

Tadqiqotchi zamonaviy huquqiy tizimlarda asarlarning mualliflik huquqini baholash talablarini soddalashtirish tendensiyalarining rivojlanishiga urgu beradi. Yevropalik olimlarning qayd etishicha, Yevropa mualliflik huquqi qonunchiligidagi uyg'unlashtirish jarayonlari natijasida Yevropa davlatlarining zamonaviy ta'limoti muallif asarining mualliflik huquqiga oid yangi mezoniga – “muallifning intellektual mehnati natijasidagi asar”ga intilmoqda. Shunga o'xshash yondashuvni AQSh huquqni qo'llash amaliyotida ham kuzatish mumkin. Bu, o'z navbatida, milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi.

Tadqiqotchi haqiqiy zararni qoplashni tartibga soluvchi mezonlarning yo'qligi, shuningdek tovonning aniq miqdorini, haqiqiy zararni isbotlash qiyinligini ta'kidlaydi. AQSh qonunchiligiga ko'ra, mualliflik huquqining buzilishi bilan bog'liq ish bo'yicha haqiqiy zarar – “kompensatsiya zarari” huquq egasi huquqbuzarlik faoliyati natijasida ko'rgan har qanday aniq zararining valyuta summasidan iborat. Ushbu zararlar o'tkazib yuborilgan sotish, o'tkazib yuborilgan litsenziyalash daromadlari, huquqbuzarning foydasini mukofotlash yoki huquqbuzarlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa isbotlangan moliyaviy zarar bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. AQSh qonunchiligiga ko'ra, tovonning aniq miqdori ko'rsatilgan bo'lib, u qonun buzilishining og'irligiga va huquqbuzarning moliyaviy ahvoliga bog'liq. Qonuniy zararni qoplash huquqbuzarlik qurbonlari uchun aniq belgilangan chora-tadbirlarni ta'minlaydi. AQShning ijobiy tajribasidan kelib chiqib, ichki qonunchilikka asar egasiga uning mualliflik huquqi buzilgan taqdirda yetkazilgan zararining aniq miqdorida to'lanishini tartibga soluvchi qoidalarni kiritish taklif etiladi.

Internet provayderlari va internet tashkilotlarini fuqarolik javobgarligiga tortish muhim amaliy yo'nalishlardan biridir. Ushbu muammoning asosi Internet-resurslardan odamlarga ko'plab asarlarni yuklab olish uchun ruxsat berilgani bilan bog'liq. Intellektual mehnat natijasining egasi foydalanuvchilar bilan bog'lana olmaganligi sababli, u ushbu Internet-kompaniyaning nazoratni amalga oshirishi ehtimoli tufayli mualliflik huquqi buzilishini oldini olish uchun Internet-kompaniyalarga murojaat qiladi. Ushbu muammoni hal qilishda muhim nuqta faqat Internet-tashkilotning Internet-resurslardan foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilgan ma'lumotlar ustidan nazoratni amalga oshirish ehtimolini aniqlash va keyinchalik mualliflik huquqlari buzilishining oldini olish bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda internet-provayderlar va internet-kompaniyalarning javobgarligi masalasi faqat sud jarayonlarida hal qilinmoqda. Dissertantning fikricha, internet makonining faol rivojlanishini hisobga olgan holda,

yuqorida qayd etilgan subyektlarning internet tarmog'ida joylashtirilgan intellektual faoliyat natijalari bo'yicha majburiyatlarini qonunchilik darajasida belgilab qo'yish zarur.

Huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishda mualliflik huquqini buzganlik uchun ma'naviy zararni hisoblash muammosi jiddiy va muhim hisoblanadi. Ko'pgina Yevropa mamlakatlari bilan solishtirganda, O'zbekistonda ma'naviy zarar uchun tovon puli miqdori juda kam. Sudlar ham tovon puli miqdorini kamaytirish sabablarini asoslab bermaydilar. Ular bu masalada ko'pincha bir xil yondashuvdan foydalanadilar va muayyan ishning o'ziga xos holatlariga e'tibor qaratmaydilar. Qonunchilikda qonun buzilishi xususiyatidan kelib chiqib, tovon puli miqdorini hisoblashning aniq mezonlari sababli bu masala sud hokimiyatining ixtiyorida qolmoqda. G'arbda va AQShda tovon puli miqdorini hisoblash usullari mavjud. Yevropa va AQShning ijobiy tajribasidan kelib chiqib, qonunchilikka tegishli normalarni kiritgan holda ma'naviy azob-uqubatlar darajasiga qarab eng kam tovon miqdorini belgilash va sudlarga uni aniq hisoblash bo'yicha qo'shimcha majburiyat yuklash taklif etildi.

XULOSA

“Plagiatga qarshi kurashishning fuqaroviy-huquqiy shakllari va vositalari” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy nazariy xulosalar:

1.1. “Plagiat” atamasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: “Plagiat – shaxsiy nomulkiy huquqlarning mustaqil buzilishi bo'lib, u butun intellektual ish natijalariga va ularning alohida elementlariga nisbatan mualliflik huquqini qo'lga kiritishda, shuningdek fan, adabiyot, san'at asarlaridan, ularning alohida qismlaridan qaysi manbadan olinganligini ko'rsatmasdan qo'llashda namoyon bo'ladi.

1.2. Imtihonlarda turli manbalardan foydalanganda talabalar, ko'plab o'qituvchilarning fikriga ko'ra, ruxsat etilgan maksimal me'yorlardan oshib ketadigan plagiat holatlariga yo'l qo'yadilar, bu esa o'quvchilar baholarining sezilarli darajada pasayishiga va o'quvchilar tomonidan o'qituvchilarni baholashda tushunmovchiliklarga olib keladi. Ushbu jarayonni tartibga solish uchun GOOGLE, YANDEX va boshqalar kabi yirik kompaniyalar tomonidan ruxsat etilgan maksimal plagiat hajmi, ularning chegaralari, havolalar ta'rifi va ularni ishlarda ko'rsatish tartibini aniq aks ettiruvchi qoidalarni ishlab chiqish taklif etiladi.

1.3. Ko'p hollarda sayt egalari pudratchilarning ishi yoki boshqa sabablarga ko'ra veb-resurslarda mualliflik huquqini buzuvchi bir qator materiallar mavjudligidan bexabar qoladilar. Ushbu ziddiyatni hal qilish uchun mualliflik huquqining buzilishiga chek qo'yish bo'yicha suddan tashqari choralarni qo'llash hamda O'zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonunida mualliflik huquqi egalarining mualliflik huquqining buzilishi to'g'risidagi da'volariga qo'yiladigan talablarni, shuningdek huquq egasidan intellektual mulk huquqlari buzilganligi to'g'risida yozma da'vo olgan axborot vositachisi tomonidan

ko‘rilgan bir qator choralarni qo‘llash kerak. Shu sababli axborot vositachisining intellektual huquqbuzarlik uchun javobgarligini belgilovchi normani qonunchilik hujjatlarida aniq belgilab qo‘yish zarur. O‘z navbatida, bu internetda plagiatga qarshi kurashda “uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari” uchun javobgarlik konsepsiyasini amalga oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

1.4. Plagiatga qarshi kurashning turli vositalaridan foydalanilishga qaramay, noqonuniy nusxa ko‘chirishning davom etishi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Yevropa va AQSh davlatlari plagiatni tekshirish uchun sun‘iy intellekt dasturlashdan tobora ko‘proq foydalanishmoqda. O‘zgartirilgan matnning eng jiddiy niqoblangan, o‘zgartirilgan shakllarini aniqlash uchun O‘zbekiston qonunchiligiga dissertatsiyalar va boshqa ilmiy ishlarda plagiatni aniqlash uchun sun‘iy intellektdan foydalanishni majburiyligi haqidagi normani kiritish zarur.

1.5. Aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarining ortishi munosabati bilan tillararo plagiat muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu munosabat bilan uni aniqlash va oldini olish yo‘llarini izlash zarurati tug‘iladi. Tadqiqotchilar turli usullarni ishlab chiqdilar: moslashishga asoslangan o‘xshashlikni tahlil qilish; N-gramm belgilarini aniqlash; tarjima – turli tillarda yozilgan ikkita matn to‘plami bir-birining nusxasi yoki yo‘qligini baholash. Plagiatni aniqlashning yuqoridagi usullarini qonuniylashtirish va qatorlararo hamda satrlararo texnik tarjima o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish kerak.

1.6. Sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning muallifligini aniqlash masalasiga oid muhokamalar to‘xtamayapti. O‘zbekistonda sun‘iy intellektning mualliflik huquqi subyekti sifatidagi qonunchilik ta‘rifi mavjud emas. Identifikatsiya qilinadigan foydalanuvchi bo‘lmasa, qonunchilikda dasturchi yoki ijodkorning manfaatlarini jamiyatning intellektual faoliyat natijalaridan erkin foydalanish ehtimolidan oladigan imtiyozlari bilan muvozanatlashi kerak. Agar sun‘iy intellekt yaratuvchilariga o‘z qurilmasi mahsulotiga mualliflik huquqini talab qilishiga ruxsat berilsa va bu ishlab chiqarishda ijodkorlikni rag‘batlantirsa, qonun chiqaruvchi ushbu masalani mualliflik huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikda ko‘rsatishi kerak.

1.7. Milliy doktrinada arziyas ijod darajasiga ega asar tushunchasi yo‘q. Muallif asarlarini mustaqil yaratishi va uning sa‘y-harakatlari, mahorati va tajribasi natijalarini taqdim etishning mustaqilligi ikkinchi darajaga tushib qolgan. Xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq, intellektual faoliyat natijasining yangi emasligi, o‘ziga xos emasligi va originallikning yo‘qligi sababli bunday natija ijodiy mehnat bilan yaratilmagan, degan xulosaga kelinmaydi va asar mualliflik huquqi obyektini hisoblanishi mumkin. Ijodiy faoliyat natijalarini mustaqil va himoya qilinishi mumkin deb tan olish uchun ijodkorlik darajasini baholashning turli mezonlaridan foydalanishni qonunchilikka kiritish zarur, shuningdek arziyas ijod darajasidagi ijodkorlik ta‘rifini ham qonunchilikda belgilash lozim.

1.8. Xorijiy davlatlarning mualliflik huquqi doktrinasi va huquqni qo‘llash amaliyotida qo‘llaniladigan “parallel ijod” va “takroriy asarlar” atamaları milliy qonunchilikda mustahkamlanmagan va ularning mazmuni ochib berilmagan. Bu esa ko‘plab ijodiy ishlar hatto mustaqil ravishda amalga oshirilgan bo‘lsa ham, plagiat

deb hisoblanishiga olib keladi. Qonunchilikda “parallel ijod” va “takroriy asarlar” ta’riflarini mustaxkamlash, asarlarni takroriy deb e’tirof etish mezonlarini sanab o’tish zarur.

